BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION O‘QITISH METODIKASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sotiboldiyeva Zulayho Murodjon qizi
Namangan Davlat pedagogika instituti
zulayhosotiboldiyeva@gmail.com

Anotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion o‘qitish metodikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.Unda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi,ijodkorligi hamda amaliy konikmalarini rivojlantirish usullari ko‘rib chiqilgan.Shuningdek, innovatsion metod turlari, innavatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Innovatsion metoddan darslarda foydalanish ta’lim sifatini oshirishning va o‘quvchilarning bilim darajasini rivojlantirishning muhim xususiyatlaridan biriligi ta’kidlab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, innovatsiya, innovatsion o‘qitish metodikasi, an’anaviy ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: *В данной статье освещаются педагогические возможности использования инновационной методики обучения в начальном образовании и её значение в повышении эффективности образовательного процесса. Рассматриваются методы развития самостоятельного мышления, творческих способностей и практических навыков учащихся. Также анализируются виды инновационных методов и преимущества их использования. Подчёркивается, что применение инновационных методов на уроках является одним из важных факторов повышения качества образования и развития уровня знаний учащихся.*

Ключевые слова: *начальное образование, инновация, инновационная методика обучения, традиционное обучение, современные педагогические технологии, игровые технологии, интерактивные методы, самостоятельное мышление, творческие способности, эффективность образования.*

Abstract: *This article discusses the pedagogical opportunities of using innovative teaching methods in primary education and their importance in improving the effectiveness of the educational process. It examines methods for developing students' independent thinking, creativity, and practical skills. The article also analyzes the types of innovative methods and the advantages of their application. It emphasizes that the use of innovative methods in lessons is one of the important factors in improving the quality of education and developing students' level of knowledge.*

Keywords: *primary education, innovation, innovative teaching methodology, traditional teaching, modern pedagogical technologies, game-based learning, interactive methods, independent thinking, creative abilities, educational effectiveness.*

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-sonli qarorida ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o‘quv rejalari, dasturlari va o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda o‘z hayotiy qiziqishlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ham ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish maqsadida maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi (keying o‘rinlarda-Respublika markazi)ni tashkil etish tog‘risidagi taklifiga rozilik berildi.Ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning samarali shakl va usullarini, ta’lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilinishi aytib o‘tilgan. Ta’lim sohasida eng muhim ustuvorlikka ega bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning va davlatimizning hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga bu davrda boshlang‘ich bilimlarni nafaqat an’anaviy balki zamonaviy tarzda maqsadli tashkil etish, 0o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish har bir pedagogning muhim vazifalaridan biridir.Bugungi rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchilardan nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi tashkilotchi sifatida ham faoliyat yuritishni talab etyapti.Bu esa har bir pedagogga tinmay izlanish va ta’lim olish ma’suliyatini yuklayapti.

Asosiy qisim: Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda bilim olishga, ko‘proq ma’lumot olib muloqot qilishga qiziqish juda kuchli hisoblanadi.Bu

davrda ularga mustaqil o‘z fikrini bayon eta olishi, mavzularni oddiy tarzda tushunishi va o‘zlashtirishiga yordam berish juda muhim. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish ta’lim jarayoning samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

,,Innovatsiya’’ (lot. ,,novatio’’-yangilash, ingl. ,,innovation’’-yangilik kiritish)yangilash, o‘zgartirish, tadbiq etish, qo‘llash degan ma’nolarni bildiradi. Har qanday yangilik ham yangilik bo‘lavermaydi, balki mavjud tizimning samaradorligini yuqori darajada oshirishga olib keladigan o‘zgarish, yangiliklargina innovatsiya hisoblanadi. Innovatsion metod- bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olishini yanada samarali qilish uchun yangi, zamonaviy va o‘quvchini faol ishtirok etishga undaydigan o‘qitish usuli hisoblanadi.O‘quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi. Innovatsion metodlar o‘quvchilarni tayyor darsni eshitishdan ko‘ra, ularni fikrlashga va darsda faol qatnashishiga imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari ta’limda innovatsion o‘qitish metodikasidan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishlari muhim masalalardan biridir.Kichik yoshdagi o‘quvchilarga darsda innovatsion metodlardan foydalanish darsning qiziqarli va natijali olib borilishiga yordam beradi.Bunday darslarda o‘quvchilar kuchli qiziqish bilan ishtirok etadilar va yangi mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga erishadilar.Bu jarayon o‘qish faoliyatini o‘yin faoliyati bilan birgalikda olib borish hisoblanadi.

Inson o‘yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1.Shaxsning ma’lum faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

2.Kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.

3.Iqtidori,qiziqishi,bilimi va o‘zligini namoyon etishga imkoniyat yaratadi.

4.Hayotda yuz beradigan qiyinchiliklarni yangishga tayyorlaydi.

5.Jamoa muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Darslarimizni o‘yin texnologiyalari asosida amalga oshirishimiz orqali o‘quvchilarda mana shu konikmalarni shakllantirishga imkon yaratiladi.Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlarga aqliy hujum, klaster, muammoli ta’lim, loyiha metodi, gamifikatsiya, STEAM yondashuvi, aylana stol,jamoaviy o‘qitish hamda raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kiritish mumkin.

Muammoli ta’lim metodida o‘quvchilarga muammoli vaziyat beriladi va unung yechimini toppish vazifa qilib beriladi.Bu metod o‘quvchilarda mustaqil

fikrlash tafakkur qilish va o‘z fikrini mustaqil bayon eta olish konikmalarini rivojlantiradi.

Jamoaviy o‘qitish metodida o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar va birgalikda topshiriq bajaradilar.Bu metod orqali o‘quvchilarda guruh bo‘lib ishlash va birovning fikrini xurmat qilib jamoaviy harakat qilish konikmasini rivojlantiradilar.

Sun’iy intellektdan foydalanish metodi esa o‘quvchilarga ma’lum topshiriq beriladi va bu topshiriqni bajarishda mavzuga mos rasmlar,savollar tayyorlashda AI vositalaridan foydalanish konikmasi shakllanishiga erishiladi.

Innovatsion metodlardan biri- ,,Klaster” usuli.Bu usulda o‘quvchi bir mavzu yuzasidan fikrlarini tarmoqlab yozadi.Ushbu yondashuv o‘quvchining fikr doirasini kengaytiradi, matnni yaxlit tushunishiga yordam beradi.Mavlyanova va Rahmonqulova ,,Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” asarida bu kabi metodlar o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiruvchi samarali vosita ekanini ta’kidlaydilar.Klaster usulidan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlanishiga hissa qoshadi.Bu usul ayniqsa matn tahlili darslarida o‘quvchilar faolligini oshiradi.Bundan tashqari, boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.Izamov A. o‘z maqolasida zamonaviy raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda matnga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishini va darslarni interfaol holga keltirishini ko‘rsatadi. Raqamli vositalar yordamida matnni tinglash, ko‘rish tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi deb ma’lumot beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlardan boshlang‘ich ta’lim jarayonida to‘g‘ri foydalanish ta’lim sifatini oshirishga hizmat qiladi.Ta’limda an’anaviy darslar bilan birgalikda innovatsion metodlaridan ham birgalikda fodalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini va o‘zlashtirishini oshirishga hizmat qiladi.Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metod va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish albatta o‘qituvchiga ham o‘quvchiga ham manfa’atli bo’ladi, chunki oddiy zerikarli metodlardan ko‘ra hozirgi talabga javob beruvchi qiziqarli dars o‘quvchilar uchun qiziq va samarali bo‘ladi.Demak,innovatsion metodik darslarga an’anaviy ta’limni to‘liq almashtirish vositasi emas, balki uni rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida qarashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev.Sh.Rasmiy manba Lex.uz-PQ-128-sonli qarori.

2. G‘afforova T. ,,Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar.-Toshkent.2011.

3. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innavatsion pedagogic texnologiyalar.-Toshkent:Nihol,2013.

4. Mavlyanova R., Rahmonqulova N. ,,Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi.-Toshkent:Voris-Nashriyot,2013.

5. Izamov A. ,,Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda zamonaviy innavatsion metodlardan foydalanish va ularning turlari.-CyberLeninka, 2023.